

# **TURIZM OQIMLARINING HUDUDIY DINAMIKASI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR. ICHKI VA XALQARO TURISTLAR OQIMINI STATISTIK-GEOGRAFIK TAHLIL QILISH**

**Olimova Dilsuz Abduxalimovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Rajabova Umida Husan qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada turizm oqimlarining hududiy dinamikasi hamda ularni shakllantiruvchi asosiy omillar statistik va geografik yondashuv asosida tahlil qilingan. Ichki va xalqaro turistlar harakati, ularning yo'nalishlari, mavsumiy o'zgarishlari, hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi hamda turizm rivojiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillar o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston misolida kiruvchi va chiquvchi turistik oqimlarning o'sish tendensiyalari, mintaqaviy farqlari va hududiy rivojlanish imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari turistik hududlarni boshqarish, strategik rejalashtirish va turizm infratuzilmasini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** Turizm oqimi, hududiy dinamika, ichki turizm, xalqaro turizm, statistik-geografik tahlil, turistik yo'nalishlar, kiruvchi turistlar, chiquvchi turistlar, turizm omillari, tabiiy-geografik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, turizm infratuzilmasi, hududiy rivojlanish, turizm geografiyasi.*

## **ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ДИНАМИКА ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ И ФАКТОРЫ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ. СТАТИСТИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОТОКОВ ВНУТРЕННИХ И ИНОСТРАННЫХ ТУРИСТОВ**

**Олимова Дилсуз Абдухалимовна**

Преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института

**Раджабова Умида Хусан кизи**

Студентка 2 курса Шахрисабзского государственного педагогического института

***Аннотация.** В данной статье территориальная динамика туристических потоков и основные факторы, формирующие их, проанализированы на основе статистико-географического подхода. Исследуются движение внутренних и международных туристов, направления их перемещения, сезонные изменения, неравномерность распределения по регионам, а также природно-географические, социально-экономические, культурные и политические факторы, влияющие на развитие туризма.*

*Кроме того, на примере Узбекистан рассматриваются тенденции роста въездных и выездных туристических потоков, их региональные различия и возможности территориального развития. Результаты исследования имеют важное значение для управления туристическими территориями, стратегического планирования и совершенствования туристической инфраструктуры.*

***Ключевые слова:** туристический поток, территориальная динамика, внутренний туризм, международный туризм, статистико-географический анализ, туристические направления, въездные туристы, выездные туристы, факторы туризма, природно-географические факторы, социально-экономические факторы, туристическая инфраструктура, территориальное развитие, география туризма.*

# TERRITORIAL DYNAMICS OF TOURISM FLOWS AND FACTORS SHAPING THEM: A STATISTICAL-GEOGRAPHICAL ANALYSIS OF DOMESTIC AND INTERNATIONAL TOURIST FLOWS

**Olimova Dilsuz Abduxalimovna**

Lecturer at Shahrizabz State Pedagogical Institute

**Rajabova Umida Husan qizi**

2-year student at Shahrizabz State Pedagogical Institute

***Abstract.** This article analyzes the territorial dynamics of tourism flows and the main factors shaping them based on a statistical and geographical approach. The movement of domestic and international tourists, their directions, seasonal changes, uneven regional distribution, as well as natural-geographical, socio-economic, cultural, and political factors influencing tourism development are examined.*

*Furthermore, using the example of Uzbekistan, the growth trends of inbound and outbound tourism flows, their regional differences, and opportunities for territorial development are analyzed. The results of the study are of significant importance for the management of tourist areas, strategic planning, and the improvement of tourism infrastructure.*

***Keywords:** tourism flow, territorial dynamics, domestic tourism, international tourism, statistical and geographical analysis, tourist destinations, inbound tourists, outbound tourists, tourism factors, natural-geographical factors, socio-economic factors, tourism infrastructure, regional development, geography of tourism.*

**Kirish.** Globalizatsiya jarayonlari turizm industriyasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirmoqda. Dunyo bo'yicha turistlar harakati nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki hududlarning demografik, madaniy, ekologik va transport-geografik salohiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm oqimlarining hududiy-dinamik tahlili esa hududlarning turistik raqobatbardoshligini baholash, strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va mintaqaviy rivojlanish jarayonlarini chuqur tushunishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqot turizm oqimlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni, ichki hamda xalqaro turistlar oqimining hududiy taqsimlanishini va ularning yillik o'zgarish xususiyatlarini statistik-geografik metodlar orqali tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston misolida real ma'lumotlar asosida mintaqaviy dinamika ko'rib chiqiladi.

Buning uchun biz avvalo turizm oqimlari tushunchasi va uning hududiy-dinamik xususiyatlarini o'rganib chiqishimiz lozim.

**Turizm oqimi** — ma'lum vaqt oralig'ida turistlarning bir hududdan ikkinchi hududga ko'chish intensivligi va hajmini ifodalovchi geografik jarayon bo'lib, quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

*1.Hududiy differentsiallik* - turistik oqimlar asosan iqtisodiy rivojlangan, transport jihatidan qulay, madaniy merosi boy hududlarda to'planadi.Uning umumiy global oqimlari yevropa, sharqiy osiyo va o'rta yer dengizi mintaqasida yuqori.

*2.Vaqtiy dinamika ya'ni mavsumiylik* - yozgi dengizbo'yi yo'nalishlari, qishki tog'-chang'i yo'nalishlari. Undan tashqari bayramlar, festivallar va xalqaro tadbirlar oqimni keskin oshiradi.

*3.Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchanlik* - infratuzilma modernizatsiyasi, viza liberallasuvi, narxlar stabiligi oqimni ko'paytiradi. siyosiy beqarorlik, pandemiya yoki iqtisodiy inqirozlar turistik oqimni kamaytiradi.

Turistik oqimlarni shakillanishi bevosita bir qancha omillar bilan uzviy bog'liq. Bular:

**-Tabiiy-geografik omillar-** landshaftlar xilma-xilligi: tog'lar, cho'llar, vodiylar, sohilbo'yi zonalari, iqlim ko'rsatkichlari: harorat, yog'ingarchilik, iqlim komforti tabiiy obyektlarga bo'lgan talab: milliy bog'lar, ekoturizm, geoturizm.

**-Tarixiy-madaniy omillar-** arxeologik yodgorliklar, qadimiy shaharlar, madaniy markazlar, etnoturizm: hududning milliy urf-odatlarini, festivallari, oshxonada madaniyati va UNESCO merosi obyektlari mavjudligi turistlar oqimini barqaror oshiradi.

**- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar-** transport infratuzilmasi (aviatsiya, temir yo'l, avtomobil yo'llari), mehmonxona fondi: mehmonxonalar soni, qulaylik darajasi, narxlar segmenti xizmatlar sifati va turizm klasterlarining samaradorligi.

- **Siyosiy omillar**- viza rejimi, chegaradan o'tish tartiblari, xavfsizlik darajasi, ekologik siyosat va turizmni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari yuqorida aytib o'tganimiz turistik oqimlarning eng dolzarblaridir.

Turistik oqimlar asosan tashqi va ichki turistik oqimlariga bo'linadi. Tashqi turistik oqim - mamlakat fuqarolarining chet davlatlarga turistik, iqtisodiy, diniy, sog'liqni tiklash, ta'lim yoki boshqa maqsadlarda amalga oshiradigan safarlari majmuyidir. Tashqi turizm oqimlari nafaqat demografik va iqtisodiy jarayonlarni aks ettiradi, balki mamlakatning tashqi aloqalari, transport infratuzilmasi va aholi farovonligi darajasini ham ko'rsatib beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston fuqarolarining tashqi sayohatlari sezilarli o'sish bilan xarakterlanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra: yiliga millionlab fuqarolar chet davlatlarga chiqish amalga oshirmoqda.

2018–2023 yillar oralig'ida chiquvchi turistlar sonida barqaror o'sish kuzatildi (1-jadval). Safarlarning asosiy sababi: turizm, ziyorat, dam olish, savdo-sotiq, ta'lim va mehnat migratsiyasi. Tashqi turizmning tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy imkoniyatlar kengayishi va transport xizmatlarining jadal rivojlanishi oqimni kuchaytiruvchi asosiy omillar bo'lmoqda.

### *O'zbekistonga eng ko'p turistlar keluvchi mamlakatlar ro'yxati*

*1-jadval*

<b>№</b>	<b>Mamlakat</b>	<b>Turistlar soni (taxminan, 2025)</b>	<b>Ulushi</b>
1	Qirg'iziston	3 300 000	~28 %
2	Tojikiston	2 700 000	~23 %
3	Qozog'iston	2 700 000	~23 %
4	Rossiya	984 400	~8.5 %
5	Afg'oniston	476 700	~4.1 %
6	Turkmaniston	370 000	~3.2 %
7	Xitoy	278 900	~2.4 %
8	Turkiya	174 900	~1.5 %

№	Мамлакат	Туристлар soni (taxminan, 2025)	Улуши
9	Гиндистон	80 800	~0.7 %
10	Жанубий Корея	46 300	~0.4 %

Мамлакатимиз ҳудудида ички туризмнинг энг юқори кўрсаткичлари машҳур туристик шаҳарлар ва обyekтлар ҳиссасига то'ғ'ри келди. Масалан: Ташкент шаҳри ва Ташкент вилояти, Самарқанд вилояти, Бухоро вилояти, Хоразм вилояти ҳамда Фарғ'она vodiysi (Фарғ'она, Андийон, Наманган) ҳудудлари ички саяйохлар энг кўп ташриф buyuradigan манзиллар ҳисобланади. Бу ҳудудларда тарихий-ме'морий обидалар, муқаддас зiyoratgohлар, замонавий дам олиш maskanлари ҳамда ривожланган транспорт ва mehmonxona infratuzilmasi mavjudligi ички туризмнинг ривожланishiga катта та'сир кўрсатади.

Quyida O'zbekiston Respublikasida ички туризмнинг viloyatlar kesimidagi катта таfovudlarni кў'rishimiz mumkin. Туристик oqim asosan тарихий merosga boy ҳудудлар ҳамда tabiiy rekreatsion zonalarda то'планган бо'lsa, sanoat yoki qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan ayrim viloyatlarda туристик кў'rsatkichlar nisbatan pastroq bo'lishi kuzatiladi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ҳудудларда yangi туризм yo'nalishlarini rivojlantirish, ekologik va agro-turizmni kengaytirish, transport infratuzilmasini yaxshilash orqali ички туризм geografiyasini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, мамлакатимизда туризм mavsumiy xarakterga ham ega. Bahor faslida asosan тарихий шаҳарлар bo'ylab sayohatlar faollashadi, yoz oylarida esa дам олиш maskanлари, tog' va suv havzalari sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Kuz mavsumida ziyorat turizmi yanada faol bo'lib, muqaddas qadamjolar va тарихий majmualarga tashriflar ko'payadi. Qish faslida esa qishki sport turizmi rivojlanib, ayniqsa Chimgan tog'lari hamda Amirsoy Mountain Resort kabi maskanlar doimiy turistlar oqimi bilan gavjum bo'ladi.

Shuningdek, ички туризмнинг rivojlanishida milliy bayramlar, madaniy festivallar, sport tadbirlari va turli ko'ngilochar dasturlar ham muhim rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar aholi o'rtasida sayohat madaniyatini rivojlantirib,

mamlakatimizning turli hududlariga ichki turistlar oqimini yanada oshirishga xizmat qiladi.

*O'zbekiston Respublikasi ichki turizmining hududlar kesimida taqsimlanishi*

1-rasm.



Mamlakatimiz butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyoda turistlar oqimi tez o'sib borayotgan yettinchi davlat deb tan olindi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga kelgan xorijiy turistlar soni 2019-yilga nisbatan 73 foizga oshgan, bu esa turizm sohasining pandemiyadan keyingi davrda tez tiklanganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2025-yilning dastlabki o'n bir oyida O'zbekistonga 10,7 milliondan ortiq xorijiy turist tashrif buyurgan bo'lib, turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad 4 milliard dollardan ortiqni tashkil etdi.

Mutaxassislar bunday o'sishni mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan izohlaydi. Jumladan, ko'plab davlatlar uchun vizasiz rejim joriy etilishi, transport va mehmonxona infratuzilmasining rivojlantirilishi, xalqaro turizm ko'rgazmalarida faol qatnashish hamda mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosini targ'ib qilish turizm oqimining ortishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlar nafaqat Markaziy Osiyoda, balki jahon miqyosida ham mashhur turistik markazlar sifatida tan olinib, mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi nufuzini yanada oshirmoqda. Natijada O‘zbekiston bugungi kunda global turizm xaritasida tez rivojlanayotgan va sayyohlar uchun jozibador yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanib bormoqda.

*Jahon bo‘yicha turizmi jadal su‘ratda o‘sib borayotgan davlatlar*

**2-rasm**



**Xulosa:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm oqimlarining hududiy dinamikasi va shakllanish mexanizmlari ko‘p omillilik xususiyatiga ega. Ularning shakllanishida tabiiy-geografik sharoitlar, tarixiy-madaniy meros obyektlari, transport va kommunikatsiya infratuzilmasi, xizmat ko‘rsatish darajasi hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli turizm oqimlarini tahlil qilish jarayonida ushbu omillarni kompleks tarzda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki va xalqaro turizmning statistik-geografik tahlili hududlarning turistik salohiyatini aniqlash, investitsiya yo‘nalishlarini belgilash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va turizm siyosatini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunday tahlillar natijasida turizm resurslaridan samarali foydalanish, yangi

turistik yoʻnalishlarni shakllantirish, hududlar oʻrtasidagi turizm rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish hamda xizmat koʻrsatish sifatini oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Shuningdek, turizm oqimlarining hududiy xususiyatlarini oʻrganish turizmni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa oʻz navbatida yangi ish oʻrinlari yaratish, mahalliy aholining daromadlarini oshirish, milliy madaniyat va tarixiy merosni asrab-avaylash hamda mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim va istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida yanada rivojlanib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ruziyev Sh. Oʻzbekiston Respublikasida 2012–2024 yillar davomida turistik oqim dinamikasi tahlili. Qoʻqon Universiteti Xabarnomasi. DOI: 10.54613/ku.v16i.1326
2. Oʻzbekiston Respublikasida turizm statistikasi toʻplami. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi (Stat.uz) — ichki va xalqaro turizm statistik maʼlumotlari jamlanmasi.
3. Normatov S.A. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy yuksalishida qishloq turizmining ahamiyati. OʻzMU XABARLARI, 2024. 3/2/1, Tabiiy fanlar turkumi, B.230-232.
4. Normatov S.A. Qashqadaryo viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishda alqaro tajribalardan foydalanish. Ilim ham Jamiyat (Fan va Jamiyat) Nukus davlat pedagogika instituti 2025-yil 2/1-son, B.57-60.
5. Normatov S.A. Usmonov M.R., Suyarova N.A. Choʻl turizmini hududiy tashkil etishning geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). FarDU. ILMIY XABARLAR. Tabiiy fanlar 2/2025, B.262-267.
6. International outbound tourism expenditure (UNWTO statistikasi): Uzbekistan – chet elga chiqish xarajatlari boʻyicha maʼlumotlar. StatBase.org (UNWTO manbasi).  
statbase.org
7. Tourist inflows continue to grow — UZA (UzA) axborot agentligi xabari, Oʻzbekistonga keluvchi turistlar soni oshishi haqida statistik maʼlumot.  
Uza.uz

8. O‘zbekiston iqtisodiyotida turizmning o‘rni: global va mahalliy tahlil — Gulhayo Xamdullayeva maqolasi, turizm statistikasi va YAIMdagi ulushi haqida.  
[yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz](http://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz).